
Туман ҳокимининг қарори: "Мақтаб ёшидаги болаларни мажбурий таълимга жалб этиш мақсадида тумандаги ҳар бир таълим муассасаларини ҳудуд ва микроҳудудларга бириктириш" ҳақида



FARG'ONA VILOYATI FURQAT TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 4 - aprel

100-11-164-Q/22

Furqat tuman hokimligi

Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta'limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta'lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish haqida

Hududlardagi aholi sonining o'sayotganligi, umumiy o'rta ta'lim maktablari qo'shimcha tashkil etilib, yangi raqamlar berilganligini inobatga olgan holda maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta'limga jalb etish borasida hududlarni aniqlashtirish zarurati kelib chiqmoqda.

Shu munosabat bilan hamda tuman xalq ta'limi bo'limining tuman hokimligiga "Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta'limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta'lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to'g'risida"gi murojaati hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari va O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Furqat tumani tuman Xalq ta'limi bo'limi mudirining "Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta'limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta'lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to'g'risida"gi murojaati qanoatlantirilsin.

2. Tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi har bir ta'lim muassasalari hudud va mikrohududlarga biriktirish jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qaror "Navbaxor" ro'znomasining navbatdagi sonida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman xokimligi Axborot xizmati (U.Bozorov) hokimlik veb-saytiga 1 kunlik muddatda joylashtirilishini ta'minlasin.

2022-04-06 20:15:50